

ONA TILI DARSLARIDA “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI ASOSIDA MATN VA LUG’AT USTIDA ISHLASH

Karomatov Akbar Abrammat o‘g‘li

CHDPI Gumanitar fanlar fakulteti 2-kurs talabasi

T.Sabitova

Ilmiy Rahbar f.f.n,dotsent

ANNOTATSIYA

Ona tili darslarida pedagog xodimlarning o‘quvchilarda badiiy yoki ilmiy adabiyotlar matni va lug‘atlari ustida ishlash ko‘nikmalarini shakillantirishlarida “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan olingan parcha asosida tayyorlangan amaliy tavsiyalar.

TAYANCH SO‘ZLAR: Qasd, sa’y, nuqson, maqbul, fazl-u kamol, qabohat, miqyos.

8-Sinf ona tili darsligidan o‘rin olgan matn va lug‘atlar ustida ishlash mavzusi uchun turli badiiy va ilmiy asarlar taqdim etilgan. Ulardan biri maorif sohasining buyuk vakili va jadidchi Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan olingan parchadir. Mumtoz matn va lug‘atlar ustida ishlash ko‘nikmasini o‘quvchilarda yuqorida keltirilgan parchalar asosida shakillantirish uchun. Avvalo, pedagog xodim lug‘atlarning izohlarini asarni o‘rganib chiqib, mavzu doirasida to‘plagan so‘zlarining izohlarini mukammal va o‘quvchilarga tushintira olishi darajasining talablari bilan yig‘ishi lozim. Bunda pedagog xodim “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va berilgan parchaning asar tili lug‘atlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Har bir so‘zning qo‘llanishi, so‘z semalarining yukini batafsil yoritib beruvchi materiallardan foydalanish o‘quvchining mumtoz matn va lug‘atlar ustida ishlashdagi ko‘nikmasini oshiradi. Shu boisdan ham so‘zlarning iboralarda qo‘llanishi, tasviriy ifodalardagi vazifasi va ko‘chma ma‘nodagi semalari, shuning bilan birga maqol va matallarda, asarlardagi dialoglarda uchrashiga misollar va materiallar katta ahamiyatga ega. Dars jarayonida mavzu uchun berilgan parchani, avvalo o‘quvchilarga tanishtirish va undan so‘ng topshiriq shartlari asosida so‘zlarni ajratib olish, yoki ajratib olingan so‘zlarni to‘plangan materiallar asosida tavsiflab, o‘quvchilarga tushintirish lozim.

MIQYOSI NAFS

Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o‘lub, o‘lmaydig‘ini vijdonimiz ila o‘lchab ko‘rmakni aytilur. Nafs o‘lchovi haqiqiy bir o‘lchovdurki, insonning o‘z nafsiga loyiq ko‘rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmogg‘a qo‘ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o‘lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu **qabohat**ini nafs o‘lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga **qasd** va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig‘idan chiqmaslikg‘a **sa’y** va g‘ayrat qilur.

Alhosil, nafs o‘lchovi ta‘rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha **maqbul** buyuk bir fazilatdur.

Buyuk Iskandar: “Dunyoda eng haqiqiy, to‘g‘ri o‘lchov nafs o‘lchovidurki, bu mezonda zarra **nuqson** yo‘qdur”, – demish.

Ibn Sino hakim: “Insonning **fazl-u kamol**ining o‘lchovi nafsning o‘lchovi ila o‘lchanur”, – demish.

Dunyoda har narsaning maxsus o‘lchovi bo‘lar, Banda **afolini** vijdoni ila tortib ko‘rar.

Bir ishiga vaznda kelsa og‘ir o‘z nafsiga,

Ul ishing qandog‘ bo‘laklarga ravo, loyiq ko‘rar.

(Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”)

(Foydalanilgan adabiyotlarga qaralsin, 1.)

Yuqorida keltirilgan matnning lug'atlarini quyidagicha o'quvchilarga batafsil bayon qilish mumkin. Ularning tushunarlik darajasini oshirish uchun va lug'atlarning ma'no qamrovini to'laqonli berish uchun turli diolog va iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning yordamida o'quvchi so'zning ma'no ko'lamini va qo'llanilishidagi emotsional-ekspresiv bo'yoyqdorligini aniq tasavvur etadi. Bu tasavvur etish esa o'quvchining so'z boyligining ma'noviyli va teranligini oshiradi. Bu esa albatta, matn va lug'at ustida ishlash mavzusining asosiy maqsadi va vazifasidir.

MIQYOS – [a. – o'lchov, mezon; o'lchagich] Ko'lam, masshtab.

* Ish miqyosi.

*Jahon miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan masala. Keng miqyosda tekshirish olib bormoq. Agar bu misolni respublika miqyosida oladigan bo'lsak, yanada quvonchli natijalarni ko'ramiz. **Gazetadan.**

QABOHAT – [a. – qabih ish, qabihlik, razillik; beadablik .ot]

1. Qabih ish, yaramas xatti-harakat; qabihlik.

*«Qanday pastkashlik, qanday yaramas qabohat! Shu mahalgacha sezmaganimga hayronman!» deb o'yladi G'ulomjon. **M. Ismoilij, Farg'ona t. O.**

*Intizor har uy diloqar, Dilkusholar bazmiga, Gar oyoq qo'ysa qabohat, Yig'lagay ostona ham. **E. Vohidov, Muhabbat.**

2 sfat. Qabohatli, razil, qabih. Qabohat ish.

Bozorning ustini tuman olibdi, Odamlarga qabohat kun bo'libdi. «Ochildov». Bu qabohat qirg'in poyoniga yetmay, davlatpanoh a'yonlari qurshovida jar yoqasida qator tizilgan o'lim dordlari tomon yurdi. **S. Karomatov, So'nggi barxan.**

SA'Y-HARAKAT – Astoydil harakat; urinish. Boshda bunday sa'y-harakatlar Avazga tabiiydek tuyuldi. **S. Siyoev, Yorug'lik.**

*Ko'lmaq singari xor bo'lmaq degan dangasa odam sa'y-harakatdan tinmasin, dangasa bo'lmasin, behuda xayollarni ko'p surmasin. **Gazetadan.**

*Ularning sa'y-harakatlari tufayli jinoyatchilikning oldi olinadi, hududda osoyishtalik hukm suradi. **Gazetadan.**

QASD – [a. – maqsad, niyat; intilish, ishtiyoq; g'araz]

1 Albatta amalga oshirish ko'zda tutilgan, jazm etilgan qat'iy niyat; azm-qaror, ahd.

* Uydan chiqishdanoq uning – [Otabekning] qasdi bu kunni dalada o'tkazmoq edi. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

*U Munisxondan uni sovitish qasdid edi. **A. Qahhor, Sarob.**

*Qasd qilmoq Biror niyatda bo'lmoq, maqsadni ko'zda tutmoq. Ertadan boshlab beparvoroq bo'lishga qasd qildim. **S. Siyoev, Yorug'lik.**

*Agar G'ulomsher qasd qilsa, har qan-day ishning uddasidan chiqishiga hamma ishonar edi. **Oybek, Nur qidirib.**

2 Haqorat, yomonlik uchun javob qaytarish (hisoblashish) niyati; adovat, o'ch, alam. Qasd qilmoq. Birovga qasd qilma. Sen jinni bo'ldingmi Yo menda boshqa bir qasding bormi? « Latifalar ».
* Mening fashizmdan bo'lak hyech kimda qasdim yo' – q. Uyg'un .
*Shermuhammadning esa xotin jo'nidan menda qasdi bor. K. Yashin, Hamza .
*Joniga qasd qilmoq (yoki etmoq) O'ldirish, yo'q qilish uchun harakat qilmoq, suiqasd qilmoq.
*Botiralinining joniga qasd qilgan kim bo'lsa ham, yurtning qarg'ishiga qoldi. H. G'ulom Mash'al .
Joningda qasding bormi Joningdan to'ydingmi Jondan bezor bo'ldingmi O'lging keldimi Joningda qasding bormi, buncha aroqning ketidan quvmasang. « Mushtum ».
* Qasdiga tushmoq Payiga tushmoq, o'ch olish, yo'q qilish va sh.k. uchun harakat qilmoq. Dushman tushar davlatlining qasdigga. « Oysuluv ».
* Qasdida bo'lmoq.
1) biror maqsadda, niyatda bo'lmoq;
2) o'ch olish, yo'q qilish, o'ldirish yoki qo'lga tushirish va sh.k. niyatda bo'lmoq.
* Uyingiz orqasini teshib, Kumush qasdida bo'luvchi.. ham shu battol Homid ekan. A. Qodiriy, O'tgan kunlar .

MAQBUL – [a. – qabul qilingan, ma'qullangan] kt.
* Qabul qilsa, ma'qullasa bo'ladigan, ma'qul keladigan. Maqbul gap. Maqbul asar. Maqbul bo'lmoq. Ma'qul va maqbul tadbirni shoyad siz janobdan eshitgaymiz. Oybek, Navoiy .
* Hamadoniy va Farhod Oynagulni ona yurtiga o'tkazib yuborishning maqbul yo'li haqida aniq fikrga kelishdi. A. Hakimov, Ilon izidan

NUQSON – [a. – kamayish, ozayish; kamchilik, nuqs]
1 Kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko'rsatadigan belgi; kamchilik, illat, qusur, ayb.
*Uning bir nuqsoni – yolg'onchiligi. Qizini yer-ko'kka ishonmagan, uning butun nuqsonlarini bir fazilat deb bilgan onasi.. bu qizni katta shavkat va dabdaba bilan uzatishni orzu qilar edi. Oybek, Tanlangan asarlar .
2 Jismoniy yoki ruhiy kamchilik, illat. Uning bir nuqsoni bor: sal oqsab yuradi.
3 Sifat jihatidan yetishmovchilik, kamchilik, kam-ko'st. Yog'ochning nuqsonlari. Ishdagi nuqsonlar.

FAZL-KAMOLOT — fazlu kamolot – Ijobiy xislat(lar) va kamolot, fazl va yetuklik, balog'at.
U o'z xo'jasining fazlu kamolotini taqdirlab, unga xizmat qilishni o'zi uchun bir sharaf deb hisoblar edi. Oybek, Navoiy .

(Foydalanilgan adabiyotlarga qaralsin, 2)

Afol- Fe'llar, harakatlar, qilmishlar, ishlar.
Nedin bas kelib tarki royi savob, Qilur noxush af'olni irtikob. (Saddi Iskandariy) A.NAVOIY
Odat, axloq, qiliqlar.
Ato hargiz o'g'il ko'ngliga boqmay, O'g'ilga ham hargiz ato af'oli yoqmay. Otamning bo'lib erdi Yoshi uluq, Men af'olindin bor edim qayg'uluq. (Saddi Iskandariy) A.NAVOIY

(Foydalanilgan adabiyotlarga qaralsin, 3)

Yuqoridagi materiallardan foydalangan holda o'quvchilarning darsni o'zlashtirishlarini tekshirish ham mumkin. Buning uchun "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining yuqoridagi parchasi berilgan 8- sinf darsligi 44-45-darslarining 80-topshirig'ini bajaraish uchun, topshiriqni o'quvchilarga tarqatma material holiga keltirish va ularni taqdim etish lozim. O'quvchilardan yig'ib olingan javob varaqalari quyida berilgan jadval shaklida bo'lsa matn va lug'at ustida ishlash mavzusining o'zlashtirilishi yuqori darajada o'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan.

80-topshiriq. Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini aniqlang. Lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling: Qasd, sa'y, nuqson, maqbul, fazl-u kamol, qabohat, miqyos.

Qasd	1) ahd, kirishmoq;
Sa'y	2) astoydil urinish;
Nuqson	3) me'yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik;
Maqbul	4) qabul qilingan, e'tirof etilgan;
Fazl-u kamol	5) fazilatlar buyukligi;
Qabohat	6) fe'l-atvor, xarakter;
Miqyos	7) chegara, me'yor;

(Foydalanilgan adabiyotlarga qaralsin, 4, 61-bet).

Matn va lug'at ustida ishlash mavzularining keng ko'lamda o'quvchilarda ko'nikma va malaka shakillantirishi uchun pedagog xodim turli adabiyotlardan foydalanishi kerak. Tahlil uchun olingan materiallar bilan tanish bo'lishi va asar tili lug'ati bo'lsa, asar tili lug'ati bilan yaqindan pedagog xodim tanishib chiqishi lozim. Umumiy mavzuda yoritilgan hikoyat, rivoyat shaklidagi matnlar va har bir badiiy asar bilan ishlashda qo'llanma sifatida foydalanish uchun "O'zbek tili izohli lug'ati" dan foydalanish ham foydali manbadir. Matn va lug'at ustida ishlashda pedagog xodimlar keng ko'lamli lug'at manbalaridan foydalangan taqdiridagina mavzuning maqsad va vazifalarini to'laqonli yuzaga chiqarish mumkin. Bu maqsad va vazifaning yuzaga amalga oshishi pedagog xodimlarning lug'atlar bilan ishlashi yordamida yuzga chiqadi. Agarda darslik materiallari va lug'atlari bilan cheklanilgan taqdirda o'quvchilar bilan yaqindan ishlash samarasi yuzaga chiqmasligi, matn va lug'at ustida ishlashda o'quvchilarda

shakillantirilgan ko'nikmalar bir tomonlama yuzaga chiqishi mumkin. Bu esa o'quvchining lug'at boyligini oshirishga ijobiy va salmoqli o'rin tutgan holda sifatli ta'sir etmaydi. Bundan anglashiladiki pedagog xodimning bu jabhada aytar so'zi ko'p va beshak to'g'ridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfl uchun darslik) O'zXTaV. Toshkent – 2019.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti – 2006.
3. Alishe Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. (IV) 2-jild. ССР "ФАН" нашрийоти. ТОШКЕНТ – 1983.
4. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfl uchun darslik) O'zXTaV. Toshkent – 2019.